

TA'LIM JARAYONIDAGI BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Karimova Feruzaxon Zakirovna

Andijon viloyati Andijon shahri
Maktabgacha va maktab ta'lumi bo'limiga
qarashli 65-davlat maktabgacha ta'lum
tashkiloti tarbiyachi metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lum tizimida o'qituvchi sifatida faoliyatini boshlayotgan bo'lajak pedagoglar faoliyatida rivojlanishi va shakllanishi zarur bo'lgan pedagogik mahorat haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, pedagogik mahorat, muloqot, ko'nikma, pedagogika.

O'qituvchilik kasbi barcha kasblar orasida noyob va muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasb sifatida ajralib turadi. O'qituvchi yosh avlod kamoloti, yoshlarga ta'lum va tarbiya berishda yetakchi shaxs bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi zamonda o'qituvchi oldiga yoshlarni har tomonlama ma'naviy-axloqiy, siyosiy jihatdan tarbiyalash, ular ongiga tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot tamoyillarini singdirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga ko'maklashish vazifasi qo'yilgan. O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirish uchun avvalo pedagogik ishni ilmiy asosda tashkil qilish lozim. Buning uchun o'qituvchining istak va qiziqishlarini hisobga olish, uning intilishi va boshqa tashqi omillarini bir – biriga uyg'unlashtirib, kasbi va shaxsining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faolligini oshirishni nazarda tutish kerak. Pedagogik mahorat fani pedagogik fanlar tizimida kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlash va takomillashtirish fani sifatida maydonga keladi. Zero, Pedagogik mahorat - bu pedagogik faoliyatni ustalik bilan boshqarishni o'rgatuvchi fandir. Shunday ekan, kasbiy – pedagogik mohirlik pedagogik – psixologik tayyorgarlikda, o'qituvchi–tarbiyachining ta'lum, tarbiya, ma'lumot tushunchalarining mohiyat – mazmunini, shaxs psixologiyasini, uning biologik shartlangan xususiyatlari (nerv tizimi, temperament, layoqat-qobiliyatini, xarakterlarini bilish jarayonlari (sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol)ni, emotsiyal irodaviy xususiyatlar (hissiyot, emotsiya, irodalarini), ijtimoiy yo'nalgan xususiyatlari (ehtiyoj, qiziqish)ni, orttirilgan kasbiy xususiyatlar (bilim, ko'nikma, malaka, odatlar)ni o'rGANIB, anglab olish asosida shakllanib boradi. O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishning birinchi sharti faoliyatdir. Pedagogik mahoratni egallash va takomillashtirishda faoliyat yetakchi omildir. Zero, mehnat, bilish, mahorat, ijod inson hayoti va faoliyatining bosh mezoni. Bu mezon kundalik ish, faoliyat orqali amalga oshiriladi. Mehnat qilish, izlanish jarayonida, ya'ni amaliyot jarayonida yutuqlar qo'lga kiritiladi, mahoratga erishiladi.

Hozirgi zamon pedagogikasi va psixalogiyasi "pedagogik mahorat"ni turlicha ifodalaydi. Misol uchun, "Pedagogik ensiklopediya"da quyidagi ta'rif keltirilgan: "O'z sohasida mohir ustasi bo'lgan, yuqori madaniyatga ega, o'z fanini chuqr tushunadigan, yondashuv fanlar sohasini yaxshi tahlil etish va tarbiyalashni, o'qitish uslubiyatini mukammal egallashga erishgan mutaxassis". **Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining "pedagogik mahorati" tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:**

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ularidan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi. Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat: 1. Pedagogik

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-AVGUST ,2024

insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi. 2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish. 3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.

5. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Pedagog - o‘quvchilar, yoshlari yoki boshqa insonlarga ta’lim berish, taraqqiyotlariga yordam berish va tayyorlash bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassisidir.

Boshlang‘ich pedagogik mahorat bir necha ko‘rinishda shakllanadi:

1. Tarbiya va psixologiya: Bu shaklda pedagogik mahorat, o‘quvchilarning rivojlanishini tushunishga va o‘zlashtirishga qaratilgan asosiy prinsiplarni o‘z ichiga oladi. Bu, o‘quvchilarning psixologik, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishlarini tushunish, ularning o‘rganish va tarbiyalanish jarayonlarini nazorat qilishni o‘rgatish, o‘qitish usullari va muntazam dasturlar tuzishni o‘rgatish va o‘quvchilarni o‘zlashtirishlarini yaxshilashga yordam berishni o‘z ichiga oladi.

2. Dasturlash: Bu shaklda pedagogik mahorat, ta’limning asosiy aspekti bo‘lgan dasturlashga qaratilgan asosiy prinsiplarni o‘z ichiga oladi. Bu, o‘quvchilar uchun ta’lim dasturlarini tuzish, o‘rganish jarayonlarini rejalashtirish, o‘qitish usullarini nazorat qilish, va o‘quvchilar uchun muhim ko‘nikmalarini o‘rgatish jarayonlarini nazorat qilishni o‘rgatishga yordam beradi.

3. O‘qitish usullari: Bu shaklda pedagogik mahorat, o‘qituvchilar uchun asosiy o‘qitish usullariga qaratilgan asosiy prinsiplarni o‘z ichiga oladi. Bu, o‘quvchilarni tushunish va ularga ko‘nikmalar va bilimlar o‘rgatish jarayonlarida o‘qitish usullari va xususiyatlarini tushunish, o‘quvchilarni baholash, o‘quv dasturlarini nazorat qilish, va ularni o‘rganish jarayonlarini nazorat qilishni o‘rgatishga yordam beradi.

Boshlang‘ich pedagogik mahoratning usullari tarbiya va psixologiyada, dasturlashda va o‘qitish usullarida o‘zaro birlashgan bo‘lishi lozimki, bu, o‘quvchilar uchun yaxshi ta’lim va tarbiya ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan bir bu Individual o‘quvchilarni aniqlash va ularga mos ta’lim usullarini ishlab chiqishdir. Bunda pedagogik mahoratning rivojlanishi uchun, o‘quvchilarning individual xususiyatlari va zaxiralari bilan tanishish juda muhim. Pedagogik mahorat, har bir o‘quvchining eng yaxshi usulda o‘rganishiga yo‘naltirilgan individual o‘qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu jarayon davomida pedagoglar, har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilishadi va shuning asosida o‘quvchilarga mos ta’lim usullarini ishlab chiqishadi. Bir pedagog, o‘quvchilarning xarakteristikalariga tayanib, ularni qiziqishlari, faoliyatlariga va individual qobiliyatlariga qarab, ularga mos ta’lim usullarini ishlab chiqadi. Bu, o‘quvchilarning o‘rganishini osonlashtiradi va ularga o‘zini rivojlanishga yordam beradi. Bunday pedagogik mahorat jarayoni, o‘quvchilarning shaxsiyliklariga, iqtidorlariga, taqdiriga va istaklariga e’tibor bergen holda, ularning barcha o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rishga yordam beradi va ularga mos ta’lim usullarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Individual o‘quvchilarni aniqlash va ularga mos ta’lim usullarini ishlab chiqish jarayonlari uchun asosiy manbalar oliv ta’lim muassasalarining pedagogik ilmiy asarlari va ularning ilmiy-nazariy tahlillari hisoblanadi. Bu manbalar o‘zaro aloqada bo‘lib, ularning bir-birini takomillashtirishiga yordam beradi. Pedagogik mahoratning birinchi komponenti o‘quvchilarning tarbiyalanishi va o‘rganishlarini tushunishdir. Bu komponent shaxsiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishlariga katta ahamiyat beradi, shuningdek, o‘quv dasturlarni va o‘qitish usullarini qabul qilishda muhimdir. Bu o‘quvchilarni o‘zlarini o‘rganish va o‘zlashtirishlarini yaxshilashda yordam beradi. Ikkinchi komponent - o‘zlashtirish yoki o‘quvchilarning qanday o‘rganishini va ko‘nikmalarini nazorat qilishni tushunishdir. Bu, o‘quvchilar bilan ishlashni, ulardan savollar olishni, o‘zlarini baholash va boshqa o‘qitish usullarini nazorat qilishni o‘rgatish bilan bog‘liqidir. Uchinchi komponent - dasturlarni tuzish va o‘zgartirishdir. Bu darsliklar, mashqlar va fan dasturlari, o‘quvchilar uchun yaxshi bo‘lib,

ta’limni yaxshilash va tarbiyalashda juda muhimdir. Boshlang‘ich pedagogik mahorat o‘quvchilar bilan ishlash, ularni o‘rgatish va o‘zlashtirish uchun muhimdir. Ushbu mahorat o‘qituvchilarni o‘quvchilarni tushunish va ularga ko‘nikmalar va bilimlar o‘rgatishda yordam beradi.

Pedagogik mahorat, yuqori darajada pedagogik g‘oyalar, ta’lim-tarbiya jarayoniga intiluvchi, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali ravishda qo‘llab-quvvatlash qobiliyati hisoblanadi. U doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirish, o‘tmish qadriyatlarini, O‘rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash haqida ma’lumotlarni o‘rganish, zamонавиу axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo‘lish, xalqaro davlatlarning o‘qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida qamrab oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar, shuningdek, bir necha yil davomida ta’lim muassasasida ishlash tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar, o‘zlarini kasbiy jihatdan rivojlantirish uchun bir qator shartlarga rioya qilishadi. **Ularni quyidagi vositalar orqali yanada rivojlantirish mumkin:** Mustaqil o‘qib-o‘rganish: Pedagogika sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan ma’lumot olish uchun yangi adabiyotlar, internet materiallari, portal tizimlari, vaqtli matbuot sahifalari va ilg‘or texnologiyalar bilan tanishish, ilgari surilgan g‘oyalar haqida umumlashish, xulosalash asosida mustaqil loyihalar tuzish.

Tajribali ustoz o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish: Ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilgan vaqt va iqtisodiy jarayonlar yuzasidan samarali taniladi.

Tajribali o‘qituvchilar faoliyatini kuzatish, ular tomonidan tashkil etilgan mashg‘ulotlarni muhokama qilish, tahlil qilish, shu jumladan olingan ta’surotlarni umumlashtirish.

O‘qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Doimiy ravishda ilmiy anjumanlarda (nazariy va amaliy konferensiyalar, seminarlar, pedagogik o‘qish va treninglar) faol ishtirop etish.

Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalarida o‘z tajribalarini oshirish, kasbiy bo‘yicha eng so‘nggi ma’lumotlarni o‘rganish.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lish, ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan amaliy harakatlar tashkil etish orqali hamda qo‘srimcha tarbiyaviy vazifalarni bajarish orqali amal qilinadi. Bu, pedagogik faoliyatda o‘tkazilgan yoki o‘tkazilayotgan xato va kamchiliklardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan o‘rtachalik munosabatda muvaffaqiyatlarga yetishish yo‘llarini o‘rgatadi. Zero, pedagogik mahoratsiz ta’lim – tarbiya, ya’ni pedagogik jarayon muvaffaqiyatini ta’minlab bo‘lmaydi. Bu esa pedagogik mahoratni egallash, har bir talaba, o‘qituvchi, tarbiyachi uchun zaruriy shart degani demakdir.

Pedagogik faoliyat qirralari:

Bilimdonlik:

- o‘qitadigan fanini puxta bilishi;
- notiqlik san’atiga (o‘quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qila olish malakasiga) ega bo‘lishi;
- bilimlarni gumanitarlashtira olishi;
- talabalarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tahlil qila olishi va ularni baholay olishi;
- bilimlarni uzlusiz mustaqil egallab borishi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy mahoratni rivojlantirish uchun o‘qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro‘-e’tiborini oshirishi, o‘quvchilar bilan ijobjiy munosabatlarni o‘rnatishi va o‘quvchilarning hurmatini qozonishi muhimdir. Pedagogik mahorat shakllanishi o‘qituvchilarning professional o‘zlashtirishiga yordam beradi, lekin bu faqat o‘qituvchi bo‘lishi uchun yetarli emas. Pedagogik mahorat, o‘quvchilarning turli xususiyatlarini va qobiliyatlarini tushunish, ularga mos ta’lim usullarini ishlab chiqish, o‘zlarining

rivojlanishiga yordam berish, o‘quv jarayonini baholash va uning natijalariga qarab yangi darslar tayyorlash kabi ko‘plab jihatlariga aloqador.

Pedagogik faoliyatini boshlayotgan har bir yosh o‘qituvchi, dastavval, o‘z kasbiy mahoratini shakllantirish va takomillashtirish ustida g‘amxo‘rlik qilishi, bu yo‘lda uchraydigan qiyinchiliklardan qo‘rmasligi, sarosimaga tushmasligi kerak bo‘ladi. Har bir pedagog yosh avlod hayoti va kelajagi uchun mas’ul ekan, mana shu yosh avlod ham ushbu harakatlardan o‘zi uchun keraklicha xulosa chiqarib o‘z hayoti uchun taraqqiyot sari dadil qadamlar bilan harakat qilishi darkor. Bo‘lajak o‘qituvchilarida pedagogik mahorat shakllanishi uchun tajribali pedagoglar albatta, ularga dasturulamal ya’ni yo‘lchi yulduz vazifasini bajarib bersa albatta ularda ilm berishga qiziqish yanada ortib mahoratli pedagoglarga aylanishi shubhasizdir.

Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Pedagogik mahorat. Darslik: A.A.Xoliqov; O‘zR Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi.Toshkent.,”Iqtisod -moliya, 2011, 420 bet.
2. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. R.Mavlonova, D.Abdurahimova..-Toshkent., “ Fan va texnologiya”, 2009,176 bet.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2003.
4. cuberleninka.ru